

1. Tuproqning tarkibi




Tuproq namunalarini ko'rib chiqing. U nimalardan tarkib topganini ayting?

Tuproq jonli va jonsiz tabiatga tegishli jismlardan tashkil topgan. Tuproqning asosiy elementlari qum, loy, mineral tuzlar, chirindi, havo va suv kabilardir. **Chirindi** – bu o'simlik va jonzotlarning chirigan qoldiqlari. Tuproqda yashovchi mikroorganizmlar ularni qayta ishlab, mineral tuzlarga aylantiradi. O'simliklar ana shu mineral tuzlar bilan oziqlanadi. Ular ildizi orqali suvda erigan mineral tuzlarni so'rib oladi. Shuning uchun tuproqda chirindi qanchalik ko'p bo'lsa, u shunchalik unumdor bo'lib, o'simliklar gurkirab o'sadi.

Ammo o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun nafaqat chirindi, balki toza havo ham kerak. O'simliklarning ildiziga toza havo kirib turishi uchun uning atrofidagi tuproqni yumshatib turish zarur.

Quyosh nuri



Rasmga qarab, o'simliklarga qanday moddalar kerak bo'lishini yozing. Bu moddalar o'simliklarga nima uchun kerak?

2. Tuproqning xossalari

1

Havo o'tkazuvchanlik. Tuproq tarkibida havo bor. Buni osongina tekshirib ko'rish mumkin: bir hovuch tuproqni suvga solsangiz, undan pufakchalar chiqa boshlaydi. Mana shu tuproqdagi havodir.



2

Suv o'tkazuvchanlik. Tuproq suvni o'tkazadi, o'simliklar o'sishi uchun zarur bo'lgan suvni esa ushlab qoladi. Tuproqni og'zi yopiq plastik qopchaga solib, issiq joyga qo'ysangiz, tuproqdagi suv bug'lanib, tomchilar paydo bo'ladi.



3

Issiqlik o'tkazuvchanlik. Tuproq qizishi, sovishi mumkin. Buni, ayniqsa, bahorda kuzatish mumkin: quyosh nuri ostida qizigan tuproqdagi maysalar soya joydagi maysalardan ertaroq unib chiqadi.



4

Sochiluvchanlik. Quruq tuproqni tuyib, tolqon (kukun) holiga keltirish mumkin.



5

Unumdorlik. Bu – tuproqning hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi xususiyat.



Daftaringizga tuproqning asosiy xossalarini yozing. Tuproqning yana qanday xossalarini ayta olasiz?

3. Tuproqning turlari



Rasmlarni ko'rib chiqing. Tuproqning unumdorligi nimalarga bog'liq?



Tuproqning unumdorligi undagi chirindi, namlik va havo miqdoriga bog'liq. Eng unumdor tuproq chirindiga boy tuproq bo'lib, u **qoratuproq** deb ataladi. Bunday tuproqning rangi nihoyatda to'q bo'ladi. Och rangli tuproqlar unchalik unumdor bo'lmaydi, chunki ularda o'simliklar uchun zarur bo'lgan oziq moddalar va mineral tuzlar kam bo'ladi.

O'zbekiston yerlari, asosan, unumdorligi past, loyli yoki cho'ldagi qumli tuproqlardan iborat. Ularning orasida sho'rxok yerlar – ustki qatlamida ko'p miqdorda tuz to'plangan tuproqlar alohida o'rin tutadi. Bunday yerlar ekin ekish uchun mutlaqo yaroqsiz bo'lib, unda faqat qora saksovul, yulg'un, shuvoq (yovshan), sho'ra kabi o'simliklar o'sa oladi. Ba'zi mintaqalarda bo'ztuproqlar ham uchraydi. Bu tuproqlar unchalik unumdor bo'lmasa-da, ular to'g'ri parvarish qilinsa, yaxshi hosil olish mumkin.



Qoratuproq



Bo'ztuproq



1. Tuproqning qaysi xossalari o'simliklar uchun foydali?
2. Matnda tuproqning qanday turlarini uchratdingiz?



Tajriba o'tkazing. Tuproq tarkibida havo, suv, chirindi, qum, loy va mineral tuzlar borligini isbotlang.